

60111300 – Musiqa ta’limi

bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

60111300 – Musiqa ta’limi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 3 yil.

60111300 – Musiqa ta’limi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari, maktabdan tashqari hamda bolalar musiqa va san’at maktablari uchun bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagogik kadr jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- ta’lim jarayoni;
- o‘qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;
- ta’limning nazariy masalalari;
- o‘qitish metodikasi;
- loyihalashtirish asosida o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va yakka tartibdagi mashg‘ulotlarni loyihalashtirish, tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayoni; ta’lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta’limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;
- mos ixtisoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ish jarayonlari;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanlaridan, o'rta maxsus kasb- hunar kollejlarida kasbiy fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;

-umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

-ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;

-kasb - hunar ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi o'qituvchisi mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

pedagogika va musiqa fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

-arxivlarda, axborot-resurs markazlarida, nashriyotlarda, ommaviy-axborot muassasalarida, qo'lyozma fondlarida, turli tadbirkorlik sub'ektlarida, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlarida hamda boshqa muassasalarda ishlash;

-mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;

-ishlab chiqarish sohasida musiqiy kasbiy ta'lim pedagogikasi, o'qitishning didaktik vositalari, ta'limning elektron vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

- fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.